



O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA, XUSUSAN "GO'RO'GLINING TUG'ILISHI" DOSTONIDA OTNING RAMZIY VA EPIK OBRAZLARI

Sherxonova Mohidil Shukurjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti qoshidagi
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti magistratura
bosqichi talabasi

mohidilsherxonova04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18029281>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 20-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 23-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

'zbek xalq dostonlari, ot obrazi,
epik motiv, mifologik tasavvur,
qanotli ot, folklor, ramziy
ma'no.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek xalq dostonlarida ot obrazining tarixiy, madaniy va badiiy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda otning o'zbek xalq hayoti va madaniyatidagi o'rni, qadim zamonlardan buyon inson faoliyatida tutgan roli, shuningdek, epik dostonlardagi ramziy va mifologik jihatlari yoritilgan. Maqolada otning qanotli tasvirlanishi va uning qahramonlarga yordam beruvchi epik xususiyatlari misollar bilan ko'rsatilib, bu fenomen ajdodlarimizning otga oid mifik tasavvurlari bilan bog'lanadi. Xorazm, Anadolu va Ozarbayjon rivoyatlari orqali otning xalq etimologiyasidagi o'rni va qadimiy e'tiqodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi epik ot motivlari, uning uchish va sehrliligi xususiyatlari, dostonlarda ot va unga oid buyumlar ramziy ma'no kasb etishi misollar bilan tasvirlanadi..

Ot o'zbek xalqining hayoti va madaniyatida juda muhim o'rin tutadi. Xususan, o'tgan asrlarda ot insonlarning asosiy transport vositasi bo'lgani sababli uning qadri yanada yuksak bo'lgan. Arxeologik topilmalar va etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida ot qadim zamonlardan oq qo'lga o'rgatilgan va turli maqsadlarda keng foydalanilgan. O'zbek xalqining e'tiqodlari, turmush tarzi hamda badiiy qarashlarida ot obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalq dostonlarida ot obrazi orqali bu munosabatlar yanada boy va chuqur ifoda topgan.

"Dostonlarda ot juda muhim o'rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo'lida xizmat qilib, g'oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo'lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo'ldoshi, ishonchli qo'ldoshi va yaqin do'stidir" [4, 45]. O'zbek xalq dostonlarida ot obrazi nihoyatda mukammal darajada tasvirlanganini folklorshunos olimlarimiz ham ta'kidlab o'tganlar [4, 70]. Bu holat, albatta, O'rta Osiyoning tabiiy sharoiti hamda bu mintaqada yashagan xalqlarning turmushi va tarixiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Darhaqiqat, o'zbek xalqining xo'jalik faoliyati va kundalik turmushida otning ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga, otga nisbatan shakllangan qadimiy e'tiqodlar — uni muqaddas

timsol sifatida e'zozlash, ayrim otlarga g'ayritabiiy qudrat yoki nasab berish haqidagi tasavvurlar — dostonlardagi epik ot obrazining yanada boy va chuqur ishlanishiga asos bo'lgan. Professor Hodi Zarif o'zining mashhur "Jangovar ot obrazining qadimiy asoslariga doir" maqolasida haqli ko'rsatib o'tganidek, "doston va ertaklarda epik otlarning tabiiy otlardan farq qiladigan alohida xususiyatlari ham bor. Bunday xususiyatlar, bir tomondan, tabiiy naslli otlarda mavjud sifat va xarakterlarni bo'rttirib, badiiy bo'yoqlar bilan bezab ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, miflarda mavjud xususiyatlar bilan bezalgan holda namoyon bo'ladi, uchinchi, ularda totemizm elementlari ham uchraydi" [4, 75].

Asosiy qism

Turkiy xalqlar tarixiga oid yozma yodgorliklar va qadimiy urf-odatlarda otning muqaddas hayvon sifatida e'zozlanganini ko'rsatuvchi ko'plab dalillar uchraydi. Ushbu ma'lumotlarni alohida o'rganish, ular orqali xalqning e'tiqodiy qarashlari va ishonchlariga xos jihatlarni aniqlash, shuningdek, ularning geografik tarqalish doirasini kuzatish ot obrazining tarixiy ildizlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Turkiy xalqlar tarixini ot obrazisiz tasavvur etish qiyin. Ajdodlarimiz bu hayvonning inson hayotidagi beqiyos o'rnini juda erta anglab yetganlar va uni muqaddas timsol sifatida ardoqlab kelganlar. Otni parvarishlash, unga g'amxo'rlik qilish va undan turli sohalarda samarali foydalanish borasida turkiy xalqlar boshqa ko'plab elatlarga o'rnak bo'lgan. Bu haqiqat nafaqat o'z tarixchilarimiz, balki g'arb tadqiqotchilari tomonidan ham e'tirof etilgan. Masalan, U. V. Shmidt o'z tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga kelgan: "O'rta Osiyoda yashab, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatishni boshlagan ilk qavm — bu turkiy xalqlar bo'lgan. Aynan ular birinchi bo'lib otni qo'lga o'rgatgan va ot minishni boshlab bergan insonlardir" [3, 8].

Ajdodlarimiz otni dunyoga tanitgan va shu orqali insoniyat tarixida katta burilish yasagan xalq hisoblanadi. Tarixchilar fikricha, "otli cho'ponlar" yoki "ko'chmanchi otli madaniyat" deb nom olgan madaniyatning shakllanishi hamda otning qo'lga o'rgatilishi bevosita qadimgi turkiy xalqlar faoliyati bilan bog'liq. Bu hodisa insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib, boshqa xalqlar va madaniyatlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotchi V. Eberxard esa xitoy xalqi ot minish san'atini miloddan avvalgi taxminan 300-yillarda Osiyo xunlaridan o'rganib olganini ta'kidlaydi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida go'rda tug'ilgan chaqaloqning jinsini aniqlash uchun egardan foydalaniladi. *"Sinab bilayin, shu bola o'g'ilmikin, qizmikim", deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo'ydi. Ikki qo'g'irchoq bilan ro'molni go'rning bir yog'iga qo'ydi. Poylab yotdi. Go'ro'g'li... egarni minib, "chuv-ha, chuv-ha, ot qo'y, qaytma, boxabar bo'linglar", – deb egarni asta-asta qimirlatib, go'rdan ancha uzoqlab ketdi"* [1, 89]. Bu misoldan ko'rinadiki, o'zbek xalq dostonlarida ot va unga oid buyumlar, xususan egar, shunchaki kundalik hayot jihozi sifatida emas, balki ramziy ma'no kasb etuvchi muqaddas unsur sifatida talqin qilinadi. Egari orqali bolaning jinsini aniqlash motivi otga va otga oid buyumlarga bo'lgan qadimiy e'tiqodning, ularning sehrli yoki bashoratli kuchga ega deb qaralganligining yaqqol ifodasidir.

Anadolu abdal turklari orasida shunday qadimiy rivoyat bor ekan. Aytishlaricha, qadim zamonlarda otlar muqaddas jonzotlar bo'lib, ular ham uchish uchun qanotga, ham suvda suzish uchun mos a'zolarga ega bo'lgan. Ular Qof tog'ining ortida joylashgan "Sut ko'li" deb atalgan muqaddas maskanda yashagan emish. Bir kuni abadiy hayot izlab yurgan Xizr alayhissalom shu ko'lga kelib qoladi va o'sha otlarni ko'rib, ularni tutishga uringan. Ammo otlar nihoyatda chaqqon va qudratli bo'lgani uchun u bunga muvaffaq bo'la olmaydi. Shunda Xizr alayhissalom

ko'lga sharob quyib, otlarni behush qiladi. So'ng ularning qanotlarini sindirib, ularni yer yuziga tushirgan emish. Shundan keyin otlar odamlar bilan birga yashay boshlagan ekan.

Yana bir ma'lumot: Xorazm viloyatining Hazorasp tumani nomi bilan bog'liq xalq etimologik rivoyatda ham shunga o'xshash mazmun uchraydi. Aytishlaricha, qadimda mingta uchuvchi otni tutib olish uchun odamlar ularning suv ichadigan buloq suviga behush qiladigan dori solishgan. Shu dorili suvdan ichgan otlar hushini yo'qotib, odamlar qo'lga tushgan. Keyin ularning qanotlari qirqilib, insonlarga xizmat qilishga majbur qilingan. Shundan so'ng bu joy "ming ot" degan ma'noni anglatuvchi "Hazorasp" nomi bilan atalgan ekan. Ozarbayjon folklorshunosi M. Seyidovning yozishicha, xalq orasida shunday bir rivoyat mavjudki, G'irotdastlab olov va yondan yaralgan qanotlarga ega bo'lgan. Ammo insonning "ko'zi tegishi" natijasida bu qanotlar erib ketgan, degan rivoyat mavjud [2, 89].

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham otning uchish motivi uchraydi:

"Gajdumbek o'sha kuni yana qo'rg'on oldiga bordi. U ikki qo'li bilan egar qoshidan ushlab, tizginini bo'yniga tashladi-da, qo'rqan holda otga qarab bir so'z dedi:

*Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!
Egaring Yovmitning bekozoti,
Xolvachining xonazoti,
Chuv-ha, chuv-ha, zo'rning oti!*

*Daryoday tosharmisan,
Yuraging jo'sharmisan?
"Chuv-ha, chuv," deb qamchi bossam,
Shu qo'rg'ondan osharmisan?
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!*

*Olti oy tablada boqilgan,
Oldingga arpa to'kilgan,
Yemingni ko'rib yesin deb,
Burama shamlar yoqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!*

*Yellaring mayin kessin deb,
Xitoy xina yopilgan,
Oyoqlaringni ip qiymas deb,
Po'tadan payvand taqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!
Tuyo'ging yaxshi bo'lsin deb,
Haqqat jushqon na'al qoqilgan,
Suvini ko'rib ichsin deb,
Har kuni mash'al yoqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, ko'rning oti!*

Badaningning qizdan nozik,

*Sening yoli-duming tuzuk,
Irg'ib o'tgin shu qo'rg'ondan,
Bo'lib qolsin juda qiziq!
Badaningning qivdan nozik.*

*Haq saqlasa balosidan,
Yurtning zardor dalasidan,
"Chuv-ha, chuv," deb qamchi bossam,
Utarmisan Shohdorxonning qal'asidan?
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!*

*Bangiboyning xonavoti,
Mavj urib, daryoday toshdi,
Ukcha tirab shu jonivor,
Qushday bo'lib, falakka uchdi.*

*Yuragi yorilib ketdi,
Shu qo'rg'ondan bu jonivor,
Qushday uchib sakrab o'tdi.*

*Endi Gajdumbek Ravshanbekning oldiga,
— Oting o'tolmadi, — deb keldi.*

*Ravshanbek otning hamma joyini silab ko'rdi, qo'ltiqiga qo'lini soldi va Gajdumbekka dedi:
— Ot irg'ib o'tibdi.*

Gajdumbek:

— Qayerdan bilding? — dedi.

Ravshanbek:

— Otning qanoti chiqibdi, shundan bildim! [1, 41].

Dostonlarimizda otning qanotli tasvirlanishi ajdodlarimizning otga oid mifik tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq. Aynan shu tasavvurlar asosida yuqorida keltirilgan turdagi afsona va rivoyatlar shakllangan. Dostonlarda otning qanotlari bilan osmon tomon uchishi, shamol kabi tez harakat qilib qahramonni maqsadiga yetkazishi kabi tasvirlar bir tomondan mubolag'a va taqqoslash kabi badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Ikkinchi tomondan, bu tasvirlarni turkiy xalqlarning qadimiy mifologik dunyoqarashi bilan bog'lab tahlil qilish ham mumkin. Yuqoridagi fikrlarimiz shuni tasdiqlaydi.

Ravshanbek sinchi bo'lganligini sababli otlarni juda yaxshi biladi. Sinchi - otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam. Dostonda ham bu o'rinlar uchraydi: Ravshanbek va Gajdumbek dala-dashtlarni tomosha qilish uchun cho'lga ovga chiqib ketishganida soyda to'da-to'da bo'lib turgan odam va otlarning suyaklariga duch kelishadi. Ravshanbek shuncha suyaklar ichidan otning qo'l suyagini topib oladi va u suyaklarning otlarga tegishli ekanligini biladi. Gajdumbek bilan Ravshanbek otning kalla suyagini uylariga olib kelib, lampaday ilib, u kallaning suyagini tagida yotaverishadi. Shu orada oradan 2 oy o'tadi. *Xalq orasida "Bular suyakdan tulpor otni bilgan emish" degan gap tarqaladi. Shohdorxon*

Gajdumbekning bir kuyovi bor emish, o'lib ketgan qirq yillik bedov tulporning suyagidan tanish emish" deb eshitadi [1, 27].

Xulosa

Ot qadim zamonlardan buyon nafaqat insonning kundalik hayotidagi zaruriy vosita, balki muqaddas, sirli va ramziy kuchga ega mavjudot sifatida e'zozlab kelingan. Mazkur maqolada keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, ot obrazi dostonlarda qahramonning eng yaqin yo'ldoshi, sodiq yordamchisi va uning taqdirini belgilovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ot va unga oid buyumlar — egar, jilov, taqa kabi unsurlar oddiy maishiy predmet emas, balki muqaddas va bashoratli ramzlar sifatida talqin etiladi. Go'rda tug'ilgan chaqaloqning taqdirini aniqlashda egardan foydalanilishi, otning qahramon taqdiriga bevosita bog'lanishi xalq ongida otning ilohiy kuch bilan aloqador timsol ekanini ko'rsatadi. Dostonlardagi qanotli ot motivi esa ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari, totemistik e'tiqodlari va tabiat hodisalarini ramziy idrok etish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, Ravshanbek obrazining sinchi sifatida tasvirlanishi o'zbek xalqida otshunoslik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Ot suyaklaridan uning zotini va xususiyatlarini aniqlash motivi xalq tajribasi, kuzatuvchanligi va otga bo'lgan chuqur bilimning badiiy ifodasidir. Bu holat otning faqat epik kuch emas, balki xalq hayotining ajralmas qismi bo'lgan real mavjudot sifatida ham qadrlanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'zbek xalq dostonlarida ot obrazi qahramonlik, sadoqat, tezlik, ilohiy madad va taqdir ramzi sifatida shakllangan. Ushbu obraz orqali xalqning tabiatga, hayvonga va inson bilan borliq o'rtasidagi uyg'unlikka bo'lgan qarashlari ifodalanadi. Ot obrazini o'rganish nafaqat folklorshunoslik uchun, balki xalqning tarixiy tafakkuri, mifologiyasi va madaniy qadriyatlarini anglash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, epik dostonlardagi ot motivlari kelgusida qiyosiy folklor, mifologiya va madaniyatshunoslik yo'nalishlarida chuqur tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi : o'zbek xalq og'zaki ijodi / aytuvchi Muhammadqul Jomurod o'g'li Po'ltan. — Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
2. Seidov M. Gyzył dojishchunun soj — etnik galeji xaggında // Ulduz jurnali. – 1980. – №10. – B. 128.
3. Tilavov A. Ot obrazi va mifik qanot detali talqiniga doir // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2021. — № 1 (36).
4. Zarifov H.T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar: jangovar otning qadimiy asoslariga doir // O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4-kitob. Po'ltan shoir. – Toshkent: Fan, 1967